



MILLIY GVARDIYA BO'LINMALARI TOMONIDAN HUQUQBUZARLIKLAR BARVAQT PROFILAKTIKASI TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI

Adashov Hojiboy Xusan o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistranti

Annotatsiya: maqolada huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlari, ularni amalga oshirish chora-tadbirlari, yakka tartibdagi profilaktikani amalga oshirishga oid masalalar tahlil qilingan hamda bu borada tegishli takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: profilaktika inspektori, profilaktik shakl, ishontirish usuli, rag'batlantirish, xavfsizlik, profilaktika.

Jahonda kechayotgan o'zgarishlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini zamonaviy tendentsiyalar asosida tashkil etish, global tahdid va xatarlarga qarshi hamkorlikda kurashish, mazkur yo'nalishda ilg'or yondashuvlarni o'rganish va o'zaro tajriba almashinuvini kengaytirishni taqozo etmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida huquqbuzarlar profilaktikasining samarali mexanizmlari amaliyotga tatbiq etildi. Jinoyatchilikni jilovlashda hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda "Xavfsiz poytaxt", "Xavfsiz shahar", "Xavfsiz hudud", "Xavfsiz xonadon", "Jinoyatdan xoli mahalla" singari kontseptsiyalar yaratildi. Har bir mahallada profilaktika inspektori lavozimi joriy etilib, mahalla fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari vazifasini bajarish profilaktika inspektori zimmasiga yuklatildi.

Endilikda jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida milliy gvardiya qo'riqlash xizmati vakillarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida mahalla huquq-tartibot maskanlarini tashkil etish, hududlarda "Smart mahalla" axborot dasturini ishga tushirish, "profilaktik-ogohlantiruvchi murojaat" hamda shaxslarni profilaktik hisobga olishning elektron tizimlarini joriy etish, "Xavfsiz ta'lim muassasasi" tamoyili asosida voyaga etmaganlar orasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni manzilli amalga oshirish ko'zda tutilgan.



Har bir davlat bor ekanki, o‘z huquq tizimi va qonunlari mavjud. Barcha fuqarolar belgilangan qonunlarga birdek amal qilishi va boshqalarning huquqlariga putur yetkazmasligi lozim. Bu davlatning rivoji va tinchligi uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Qonundan chetga chiqish esa huquqbuzarlikni keltirib chiqaradi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar sodir etilgan huquqbuzarlikka qarshi kurashishadi: aybdorni topishadi, so‘roq qilishadi, sabablarni aniqlashadi va hokazo. Buning uchun ko‘p mablag‘ va ishchi kuchi kerak bo‘ladi. Shu sabab huquqbuzarlik sodir bo‘lishidan avval uni oldini olgan ma‘qul. Bunday holatda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi bizga yordamga keladi.

Huquq nazariyasida “huquqbuzarlik” deganda jamiyat uchun xavfli bo‘lgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik), boshqa manbada esa huquqbuzarlikka jamiyatda o‘rnatilgan va qonun asosida belgilangan tartib yoki umuman ijtimoiy yashash qoidalarini buzish sifatida ta‘rif berilgan. Ushbu ta‘riflardan kelib chiqqan holda huquqbuzarliklar ijtimoiy xavfi va uni sodir etganlik uchun javobgarlikni belgilovchi huquq sohasiga asosan:

A) Fuqaroviy;

B) Intizomiy;

D) Ma‘muriy;

E) Jinoiy;

turlarga ajratiladi;

Olib borilgan kuzatishlar hamda o‘tkazilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, amaliyotda “huquqbuzarlik“ tushunchasini turlicha talqin etish uchrab turibdi. Amaliyot organlarida faoliyat yuritayotgan profilaktika inspektorlarining aksariyati huquqbuzarlik deganda ma‘muriy huquqbuzarlikni nazarda tutishadi. Xususan, o‘tkazilgan so‘rovda ishtirok etgan respondentlarning 65%i ma‘muriy huquqbuzarlik deb belgilashgani fikrimizning isbotidir;

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida:

“Huquqbuzarlik – sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)” deb ta‘rif berilgan.



Bunda profilaktika soʻziga eʼtibor berish lozim. Profilaktika soʻzi lotincha soʻz boʻlib maʼnosi “oldini oluvchi”, “saqlovchi” degan maʼnolarni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, huquqbuzarliklar profilaktikasi deganda huquqbuzarliklarni oldini olish tushuniladi. Yanada aniq huquqiy javob “Huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida”gi Qonunning 3-moddasida keltirib oʻtilgan: “Huquqbuzarliklar profilaktikasi — huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qoʻllaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi”.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini taʼminlash;

-huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, oʻrganish, muhokama qilish va bartaraf etish chora-tadbirlarini koʻrish;

-huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil boʻlgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;

-jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish;

-voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa gʻayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

-voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;

-ijtimoiy vaziyati ogʻir boʻlgan shaxs va oilalarni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish;

-voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa gʻayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish;

-huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining o'zaro hamkorligini ta'minlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- insonparvarlik;
- tizimlilik;
- ishontirish usulining ustuvorligi;
- ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini farqlash va yakka tartibdagi yondashish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari quyidagilardan iborat:

- huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari:

- huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;
- huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;
- huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;
- huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Bugungi kunda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyat, davlat va shaxsning qonuniy manfaatlarini har qanday ko`rinishdagi tahdidlardan himoya qilish, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni, millatlararo totuvlikni hamda barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir.



“O‘zbekistonda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni fuqarolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni ko‘z qorachig‘idek saqlash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo‘lib qolishi darkor” .

O‘zbekistonda shakllangan huquqbuzarliklar profilaktikasi milliy tizimi, ya‘ni huquqbuzarliklar profilaktikasi siyosatiga, uning mazmun-mohiyatini o‘zida aks ettiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek, ularning hayotda amalga oshirilishi va qo‘llanilishini ta‘minlovchi organ va muassasalar faoliyatiga bevosita o‘zbek xalqining yuksak ma‘naviyatini o‘zida aks ettiruvchi insoniy tuyg‘ular, buyuk ajdodlar meroslari, oila qadriyatlari haqidagi g‘oyalar singdirilgan.

Adabiyotlar:

- 1.Sh.M.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston nashryoti, 2021. 62,453-betlar.
2. R.M.Maxmudov. Jamoat tartibini saqlashda jinoyatlarni oldini olishning vositalari. T.: Akademiya.2006 yil.
3. Ismoilov I. rahbarligida “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta‘minlash faoliyati” darslik. T.: O‘zbekiston IIV Akademiyasi, 2019. - 336 b.